

TA'LIM JARAYONIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING TUTGAN O'RNI

Oltinoy Anvar qizi Maratova

Magistr, Chirchiq davlat pedagogika universiteti
maratovaoltinoy@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'limning afzalliklari va ta'lism tizimida tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari asosiy e'tibor o'rganuvchilar orasidagi differensiatsiyaga qaratilgan bo'lib, darslarni individuallashtirishga oid savollar ko'rib chiqiladi va takliflar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, differensiatsiya, o'quv jarayoni, o'qitish metodlari, konstruktiv ta'lim, individuallashtirish.

ABSTRACT

This article discusses the benefits of person-centered learning and its role in the education system. In addition, the main attention is focused on the differentiation between students, questions regarding the individualization of lessons are considered and suggestions are made.

Keywords: Person-oriented education, differentiation, educational process, teaching methods, constructive education, individualization.

KIRISH

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - bu ta'lim jarayonining keng qamrovli kontsepsiysi bo'lib, u individual o'quvchiga yo'naltirilgan pedagogik va didaktik munosabatga asoslanadi. Bunda darslar tizimli ravishda o'quvchilarga ichki farqlashlar orqali moslashtirib boriladi, ya'ni o'quvchilarning o'zlashtirishiga qarab darslarni loyihalash, tarkibni individual tanlash, o'rganish tezligi va topshiriq darajasiga asoslanadi.

Albatta o'qituvchilarda o'quv dasturlari va turli xil sinflar doirasida individuallashtirishni qanday amalga oshirish yoki olib borish mumkinligi to'g'risida savol tug'iladi. O'quvchilar bir xil emas, ya'ni ular individual farqlarni ko'rsatadi. Didaktika sinfdagi turli xillik muammosini ichki farqlash orqali bartaraf etishni taklif qiladi. Ichki farqlash o'qituvchining alohida o'quvchilarga ko'proq e'tibor qaratishini bildiradi. Amalda ichki differensiatsiyani amalga oshiruvchi o'qituvchilar guruhda bir xil

darslikdan foydalanmaydilar, balki turli darajadagi darsliklardan foydalanadilar. Ammo umumiylar darslik bo'lsa ham, qo'shimcha materiallar o'quvchilarning til qobiliyatlari va qiziqishlariga qarab farq qilishi mumkin.

Individual qo'llab-quvvatlash siyosiy atama bo'lib, u yagona tan olingan ta'rifga asoslanmagan - asosiy xususiyat o'rganuvchilarga qaratilgan e'tibordir. Ular o'zlarining iste'dodlari, ko'nikmalari va malakalarini yuqori darajada rivojlantirishlari va shu tariqa ta'lim jarayonida yaxshi muvaffaqiyatga erishishlari uchun qo'llab-quvvatlanadi. Bu har bir bola va yoshni alohida-alohida o'qitish haqida emas. Individual yordam deganda o'quvchilar sinfdan chiqmagan holda o'z ko'nikmalarini faol rivojlantiradigan, o'quv jarayoni uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan, o'qishdagi yutuqlarini tan olishi va mulohaza yuritishi mumkin bo'lgan o'quv vaziyatlarini yaratish tushuniladi. O'quvchi-talabalarning o'rganishi kerak bo'lgan vazifalar va ko'nikmalar to'g'risida topshiriqlar beriladi, lekin ularga hamma bir vaqtning o'zida va bir xil tarzda erishishi shart emas. Sinf bir xil birlik sifatida emas, balki asosiy e'tibor o'quvchilarni o'rganish sub'ekti sifatida qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Individual yordam uzoq vaqtdan beri maxsus ta'limda ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, maxsus maktablarda odatda maktab va o'qitish madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsiyasiga kiritilishi munosabati bilan, endilikda umumta'lim maktablari uchun individual qo'llab-quvvatlash ham ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, yurtimizda ham imkoniyati cheklangan bolalarni maktabga kelolmasligi sababli o'qituvchilarning o'zi ularning uylariga borib individual dars o'tishadi.

Shunday bo'lsa ham ko'p mamlakatlarda individual yordamni amalga oshirish hali boshlang'ich bosqichda. Bu individual yordamga barqaror o'tish matabning barcha sohalarida tub o'zgarishlarni talab qilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Sinfda o'qituvchiga individual o'quvchilarga yaxshiroq javob berish va o'quvchilarning mustaqil ravishda ta'lim olishiga imkon beradigan o'quv muhitini yaratish uchun pedagogikada ma'lum bo'lgan shaxsga yo'naltirilgan va faollashtiruvchi yondashuvlardan tashqari bir qancha omillar zarur. Masalan, o'qituvchilar barcha bolalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash ehtiyojlari va salohiyatini tan olishlari uchun diagnostika ko'nikmalari va protseduralariga muhtoj. Shakllar va tartiblar, individuallashtirish usullari va vositalari haqida bilim kerak. Bunga o'rganish tartiblari, fikr-mulohaza yuritish tartib-qoidalari, o'zgartirilgan ishslash materiallari va baholash haqidagi bilimlar kiradi.

Darhaqiqat, har birimiz bilamizki, har bir bola individual, noyob shaxsdir. Hech bir bola bir-biriga o'xshamaydi. Ammo, biz buni bilsak ham, biz bu bolalar, ularning turmushi va hayotiy vaziyatlari o'rtasidagi farqlar qanchalik katta ekanligini kamdan-kam tushunamiz. Iqtidorli, o'rtacha intellektli va biroz o'rganishda nuqsoni bo'lgan bola, asosan ko'rish, eshitish yoki kinestetik jihatdan o'rganadigan bola, ruhiy sog'lom va xulq-atvorida muammolari bor bola o'rtasida bir dunyo farq mavjud. Va biz bu ro'yxatni cheksiz davom ettirishimiz mumkin.

Bir nechta istisnolardan tashqari, bu bir biridan farq qiluvchi bolalarning barchasi bir xil boshlang'ich maktablarda o'qiydilar. Shunday qilib, o'qituvchilar deyarli tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada shaxsiy tuzilmalari, iste'dodlari, o'rganish uslublari, psixologik jarayonlari va xatti-harakatlari bir-biridan farq qiladigan bu bolalarning hammasini bir xil boshlang'ich maktab o'quv dasturi bo'yicha o'qitishi kerak!

Boshlang'ich maktab o'quvchilarining ta'limiga qo'yiladigan talablar o'rtasidagi nomuvofiqlik, bolalarning o'zlashtirish qobiliyati va qiziqishlarining har-xilligi kabi muammolarni o'qituvchilar faqat ta'lim jarayonlarini individuallashtirish orqali yengishi mumkin. Bu degani:

Har bir bolaning rivojlanish darajasini, kognitiv va boshqa qobiliyatlarini, iste'dodlarini, bilimlarini va maxsus ehtiyojlarini baholash uchun diqqat bilan kuzatib borish kerak.

Frontal o'qitish tobora ko'proq juftlik va guruh ishlari bilan almashtirilmoqda. Har bir bolaga loyiha ishi, ochiq darslar yoki stansiyalarini o'rganish doirasida ko'proq erkinlik beriladi, shunda ular o'quv mazmunida o'z so'zini aytishi yoki o'z ta'limini mustaqil ravishda rejalashtirishi va amalga oshirishi mumkin. O'qituvchi ko'proq kuzatuvchi va yordam beruvchi rolini o'ynaydi.

Individual bolaga ishslash doirasida o'z-o'zini tarbiyalash imkoniyati beriladi: u o'zini qiziqtirgan mavzular, materiallar va mashg'ulotlar bilan ko'p yoki kamroq mustaqil ravishda shug'ullanishi mumkin. Undan tashqari bolada kichik guruhlarda ishslash doirasida birgalikda konstruktiv ta'lim olish imkoniyati ham bo'ladi: Birgalikda ishslash yoki bir-biri bilan suhbatda bolalar mustaqil ravishda bilimlarni rivojlantiradilar, bir-biridan o'rganadilar va shaxslararo munosabatlarni kengaytiradilar.

Ta'lim jarayonlarini individuallashtirish, kerak bo'lsa, alohida bolalarni intensiv qo'llab-quvvatlashga ham imkon beradi. Masalan, o'zlashtirishi past bo'lgan bolalarning til ko'nikmalarini maqsadli ravishda yaxshilash mumkin. Bu yerda sinfda o'quvchilar qanchalik kam bo'lsa, ta'lim jarayonlarini individuallashtirish osonroq ekanligi ayon bo'ladi.

O'qituvchilar kichik guruqlar yoki alohida bolalar bilan ishlaganda bolalar soni kamroq bo'ladi va sinf qanchalik kichik bo'lsa, har bir bolani yanada intensiv kuzatish va ularning rivojlanishini aniqlash imkoniyati ortadi.

XULOSA

Xulosa qilib yozish joizki, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni to'g'ri tashkil etish ta'lim jarayonida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. O'qituvchi har bir bolaning qiziqish va qobiliyatiga ko'ra ta'lim berishga yondashsa auditoriyada fanni yaxshi va mukammal o'rganuvchi o'quvchi-talabalar soni yanada oshadi, bu esa shak-shubhasiz ta'lim jarayonining rivojlanishiga, o'quv dargohlarida iste'dodlar sonining ko'payishiga, mamlakatda salohiyatli, bilimli, ma'lum bir kasb egasi bo'lgan fuqarolar kesimini shakllanishiga sabab bo'ladi.

REFERENCES

1. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyixalashtirish va rejalashtirish. / B.Yu.Xodiev taxriri ostida. - T.: «Idtisodiyot», 2009.
2. Indiaminov N. va b. Ta'lim samaradorligini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Ta'lim texnologiyalari. 2014
3. Kestle, F.: Einführung in die Didaktik des Geographieunterrichts. Wiesbaden: Klinkhardt. 2002.
4. Reich, K.: Konstruktivistische Didaktik. Lehr- und Studienbuch mit Methodenpool. 4.Auflage. Weinheim: Beltz Verlag. 2008.
5. Trencse, S.: Gelungene Begründungen der lernerorientierten Qualitätsentwicklung in Selbstreporten der Weiterbildungsorganisationen. Hannover: Expressum Verlag. 2009, S. 52 – 68.
6. Erhart, F. & Zech, R. (Hrsg.): Herausforderung meistern. Lernerorientierte Qualitätsentwicklung in Bildungsorganisationen der Wirtschaft und des Gesundheitswesens. Hannover: Expressum Verlag, 2009.